



## O'zbek tilshunosligida imo-ishoralarni ichki guruhlariga bo'lish masalasi

Majidova Maftuna Samad qizi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti  
universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11560409>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-may 2024 yil

Ma'qullandi: 29-may 2024 yil

Nashr qilindi: 11-iyun 2024 yil

#### KEY WORDS

*imo-ishora, noverbal muloqot, ritorika,  
Adam Kendon, notiq, imo-ishoraikulyar  
aloqa, ichki guruhlash*

### ABSTRACT

*ushbu maqolada imo-ishora tushunchasining  
vujudga kelishi va insoniyat taraqqiyoti  
tadrijing muhim omili ekanligi xususida so'z  
boradi. Bundan tashqari, noverbal muloqot  
ko'rinishlarini guruhga ajratishda asos qilib  
olingan omillar tavsiflanadi.*

Lingvosomatik unsurlar yordamida nutq ifodalashning vujudga kelishi insoniyat tarixi boshlanishi bilan belgilanadi. Ilk insonlar tana a'zolarining turli harakatlaridan so'z, so'z birikmasi va hatto yirik sintaktik butunliklarni ifodalash uchun foydalanishgan. Tana a'zolari orqali ifodalangan nutq o'zida harakat egasining hissiy kechinmalarini ham tashish xususiyatiga egadir. Shu sababdan ham, imo-ishoralarni orqali fikr ifodalaganimizda fikrdan tashqari adresatga shu fikrga bo'lgan ijobiy yoki salbiy munosabatlarimizni ham yetkazgan bo'lamiz.

Inson jamiyat bilan muloqotga kirishar ekan, tabiiyki, atrofdagi voqea-hodisa, jamiyat a'zolari va ijtimoiy muhitga qaysidir darajada o'z munosabatini bildiradi. Bu munosabat har doim ham nutq orqali yuzaga chiqavermaydi. Bunday vaziyatda bizga "tana tili – imo-ishora" yordamga keladi.

Imo-ishoraviy aloqa bu nutqsiz, ya'ni so'zlardan foydalanmasdan har qanday ishora shaklida taqdim etilgan til vositalaridir. Bunda muloqot vositasi inson tanasi bo'lib, u axborotni uzatish yoki almashishning keng imkoniyatlarini o'zida mujassam etadi.

Imo-ishora so'zi lotincha "gerere" so'zidan olingan bo'lib, "tashimoq, mas'uliyat, idora etish, bajarish" singari ma'nolarni ifoda etadi. 1959-yilda yaratilgan Partrij etimologik lug'atiga ko'ra, imo-ishora so'zi (aniqrog'i uning inglizcha variant gesture) o'rta asr lotinlari tomonidan qo'llangan gestura so'zidan olingan va "nimanidir tashish yoki bajarish qobiliyati" ma'nosini ifodalaydi. Ingliz imo-ishorashunos olimi Adam Kendonning ma'lumotlariga ko'ra, dastlab inglizlarda bu so'z faqatgina tik turish yoki harakat bajarishni ifodalagan. Keyinchalik esa, ritorika fanining obyektiga aylanib, notiqning tinglovchilarga nutq ta'sirini oshirish

maqsadida o'z tanasidan oqilona va samarali foydalanish quroli sifatida foydalanib kelingan. Shunday qilib, imo-ishora so'zi keng iste'moldagi so'zlar qatoriga kirib kelgan.

Garchand, biz ibtidoiy jamoa tuzumidan buyon noverbal vositalarga murojaat etsakda, XX asr 50-yillaridagina "noverbal muloqot", "imo-ishora" tushunchalari alohida ilmiy maqom kasb etdi va XX asr 80-yillari oxirida ingliz tilshunosi Adam Kendon asarlari orqali tilshunoslikda alohida yo'nalish sifatida tadqiq obyektiga aylandi. Imo-ishoralar tili bugungi kunga qadar jahon tilshunosligida keng o'rganib kelinmoqda.

O'zbek tilshunosligida esa, bu soha bir muncha yangi yo'nalish bo'lishiga qaramay, qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ammo hali hanuz o'z yechimini kutayotgan masalalar talaygina. Xuddi shu masalalardan biri bu noverbal nutq vositalarini ichki guruhlashdir. Ya'ni ishtirokchi tana a'zolarining faol yoki nofaol ishtirok etishiga, yosh jihatdan qo'llanilishiga, gender jihatni o'zida ifodalashiga ko'ra sistemalashtirish masalalari haligacha tilshunosligimizda ochiq qolayotgan muammolardan biridir. Yuqoridagi masalaning yechimi o'laroq, biz quyida ichki sistemalashtirishga doir qarashlarimizni bayon qilishga harakat qildik.

Tana a'zolarining faol qo'llanilishiga ko'ra	Bosh bilan;
	Qo'l bilan;
	Lab bilan;
	Tana holati bilan

Imo-ishorani qo'llovchi shaxsning yosh jihatini inobatga olgan holda	Bolalar nutqida qo'llaniladigan
	Yoshlar nutqida qo'llaniladigan
	Kattalar nutqida qo'llaniladigan

Ayollar yoki erkaklar nutqida ishtirokiga ko'ra	Ayollarga xos;
	Erkaklarga xos;
	Betaraf – ham erkaklar, ham ayollar nutqida qo'llaniluvchi imo-ishoralar

Imo-ishoralarni bu kabi guruhlarga ajratish, albatta, nisbiydir. Chunki birgina imo-ishora bir vaqtning o'zida ham kattalar, ham yoshlar, ham bolalar, ham ayollar, ham erkaklar uchun nutq ifodalovchisi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, bitta imo-ishorada birdan ortiq tana a'zolari faol va nofaol qiymatda ifoda topadi. Faol harakat bajaruvchisi bo'lgan a'zoga nisbatan aktiv organ, nofaol tana a'zosiga ega passiv organ atamalari qo'llaniladi.

Inson imo-ishoralarni kuzatish, o'rganish va ularni tahlil qilish harakat bajaruvchisi haqida ma'lumotlarga ega bo'lishimizga yordam beradi. So'zlovchining taxminiy yoshi, nasl-

nasabi, kasb-kori haqidagi nutqqa yondosh ma'lumotlar ham aynan tana harakatlarini o'rganish bilan ochiqlana boradi.

Noverbal muloqot hamsuhbatning fikrini jalb qilish yoki ish bo'yicha uchrashuvlar va intervyular singari umumiy vaziyatlarda dastlabki taassurotni kuchaytiradi: taassurotlar o'rta hisobda muloqotning dastlabki to'rt soniyasi ichida shakllanadi. Birinchi uchrashuv yoki umuman boshqa inson bilan o'zaro muloqotga kirishish insonning idrokiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Noverbal muloqotda mohirlik ijtimoiy vaziyatlarni yo'lga qo'yishda, noyob insoniy xulq-atvorlarni dekodlash va turli jamoalarda mazmunli suhbatlarni o'rnatishda juda muhimdir, bu esa muloqotning verbal va noverbal shakllari o'zaro bog'liqligi va ahamiyatini ko'rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

G.E.Kreydlin. Kinesika.– 2001

Kendon, Adam. Nonverbal Communication, interaction and gesture: selections from semiotica. – 1981

S.A.Grigorevna, N.V.Grigoryev, G.E.Kreydlin. Словарь языка русских жестов. – Moskva, 2001.

www. Cambridge.org

www.wikipedia.com



INNOVATIVE  
ACADEMY